

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SULTANOV ALISHER ISLAMBOYEVICH

**BELBOG‘LI KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK
TAYYORGARLIGINING ILMIY METODIK JIHATLARI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
Avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciencies**

Sultanov Alisher Islamboyevich

Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining ilmiy metodik
jihatlari..... 5

Султанов Алишер Исламбоевич

Научно-методические аспекты технико-тактической подготовки борцов на
поясах..... 33

Sultanov Alisher Islamboyevich

Scientific methodical aspects of technical and tactical training of belt
wrestlers..... 63

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 65

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SULTANOV ALISHER ISLAMBOYEVICH

**BELBOG‘LI KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK
TAYYORGARLIGINING ILMIY METODIK JIHATLARI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Ped6784 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.uzdjtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ishtayev Javlon Mavlonboyevich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Artiqov Zoxid Sobitjonovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, ___ -uy. Tel: (0-370)-717-18-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma‘muriy” bino 1-qavat, 145-xona)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370)-717-18-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025- yil “___” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.Y.Egamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy sportning rivojlanishi va sportda erishilgan yutuqlarning dinamikasi shunday darajaga yetdiki, mavjud natijalarni yaxshilash uchun yangi texnologiya yaratish ko'proq kuch, ilm, vaqt va boshqa resurslarni sarflashni talab qilmoqda. Shu sababli ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish sport ixtisosligining ilk bosqichlaridanoq amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Texnik-taktik tayyorgarlik belbog'li kurashchining musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatga erishishining asosiy omillaridan biri bo'lib, bu tayyorgarlik trener va sportchi o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashgan, tizimli, metodik yondashuv talab etmoqda. Belbog'li kurashchining texnik imkoniyatlarini kengaytirish, usullarining aniqligi, vaqtni to'g'ri baholash, raqib harakatlarini oldindan sezish va bunga mos taktik javoblar shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kurashchilarning tana holati, og'irlik markazi va muvozanatni saqlash qobiliyati ham texnik-taktik darajani belgilovchi omillardan sanaladi. Dunyo miqyosida kurash bo'yicha raqobatning keskin darajada oshib borayotgani hozirgi kunda sportchilarni tayyorlashning optimal jihatlarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish muammolarini kompleks o'rganishni talab qilmoqda. Sportchilarning individual xususiyatlariga mos dasturlar yordamida texnika takomillashtiriladi, taktik model ssenariylari orqali raqib ustidan ustunlikka erishish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahonda bir qator olimlar tomonidan kurash turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarning texnik-taktik harakatlarni bajarishda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq kurashchilarda kuch qobiliyati va reaksiya tezkorligini takomillashtirishga qaratilgan maxsus koordinatsion mashqlarni qo'llagan holda texnik-taktik usullarni bajarish samaradorligini oshirish bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Zamonaviy sport psixologiyasi, biomexanika va videoanaliz texnologiyalaridan foydalanish belbog'li kurashchilarning tayyorgarlik jarayoniga ilmiy asos kiritmoqda. Shu boisdan belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonlariga texnik harakatlariga o'rgatish uchun onglilik va faollilik tamoyili samaradorligini asoslash, belbog'li kurashchilarni asosiy usullari - kiftlash, ilish va to'sib tashlash harakatlarining har bir fazasini aniq amplituda bo'yicha o'rgatish uchun texnik elementlar dasturidan foydalanish samaradorligini tajribada asoslash, belbog'li kurashchilarning bellashuv vaqtida taktik tayyorgarligining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun tabaqalashtirilgan kombinatsiyalar modellarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan maqsadli tizimning shakllanishi, yoshlarga berilayotgan e'tibor, ommaviy sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar ishlab chiqilib ushbu sohani tartibga solishda me'yoriy asos hisoblanmoqda. "Kurash milliy sport turini aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodda milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usini

mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish”¹ vazifasi belgilab berilgan. Kurash bo‘yicha respublika va jahon miqyosida o‘tkazilayotgan musobaqalarda ko‘p millat vakillari orasida qiziqishning va raqobatning ortib borayotganligi ushbu sport turining rivojlanishini hisobga olgan holda kurashchilarimizni turli miqyosdagi musobaqalarga tizimli ravishda tayyorlab borish, texnik-taktik harakatlarning bajarish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa kurash bilan shug‘ullanuvchi bolalarning koordinasion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning modulli tizimini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqib, kurash sport turiga oid qobiliyatlarni aniqlovchi testlari majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shu maqsadda bugungi ilmiy tadqiqotlarda yosh kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda maxsus sport uskunalaridan foydalanib koordinasion qobiliyatlarini rivojlantirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Belbog‘li kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida “Baraniy kreslosi” trenajyoridan foydalanish orqali texnik-taktik tayyorgarligida, muvozanat saqlash qobiliyatlarini va uning samaradorligini tajribada asoslash tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarb ekanligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning halqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 -yil 2-oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlariga mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika va fan texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlar doirasiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda sport nazariyasi va metodikasi sohasida bir qator mutaxassislar — A.A. Ruziyev, T.S. Usmonxo‘jayev, F. Kerimov, N. Yusupov, A.M. Achilov, M.A. Qurbonova, A.A. Pulatov va boshqalar tomonidan o‘quv qo‘llanma va darsliklarda bolalar-o‘smirlar sporti nazariyasi va uslubiyati sohasida yosh sportchilarni tayyorlash tizimi yoritilgan, jumladan bolalar organizmining yoshiga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yuklamalarni rejalashtirish va mashg‘ulot uslubiyati ishlab chiqilgan. Kurash bo‘yicha olimlardan J.M.Ishtayev, Sh.S.Mirzanov, Z.S.Artiqov, M.Qirg‘izboyev va A.U.Xamidjanovlar tomonidan bajarilgan dissertatsiya tadqiqotlarida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3306-sonli qarori; 2017 yil 2 oktyabr.

kurashchilarning portlash qobiliyati, statokinetik va statodinamik muvozanat, saralash muammolari har tomonlama o'rganilgan.²

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va xorijda mavzuga doir olib borilgan bir qator tadqiqotlarda V.I.Filimonov, V.P.Filin, V.G.Nikitushkin, A.G.Shiryayev, .V.Volkov; V.Ye.Koteshev, D.A.Tishler, A.D.Movshovich, G.D.Tishler sportchilarning kompleks tayyorgarligini turli vosita va usullar orqali rivojlantirishga etibor qaratganlar.

Xorijiy olimlardan T.Bompa va boshqalar tomonidan yosh sportchilarning psixologik, texnik-taktik, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan³. A.V.Kanatov Roberts, J., & Sevieri, D., Ivanov N. A., Gonta S. N., Demiral S., Demir A.⁴ fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, texnik va taktik tayyorgarlik kurashda muvaffaqiyatli faoliyat asosi bo'lib xizmat qilishini hamda yuqori darajada rivojlangan koordinasion qobiliyatlar esa kurash asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga zamin yaratishini takidlashadi.

Yakkakurashchilar va boshqa sohadagi sportchilarning texnik va taktik tayyorgarligi jarayonida koordinasion qobiliyatlarning ahamiyati ko'pchilik olimlar tomonidan tan olingan bo'lishiga qaramasdan, yosh kurashchilarning koordinasion qobiliyatlarini texnik-taktik mahoratni o'zlashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida takomillashtirish bo'yicha manbalar yetarli emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2020-2024- yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasining «O'zbekiston terma jamoalarida malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

²Рузиев А.А. Научно-методические основы многолетней подготовки квалифицированных юных борцов: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. –М., 1999. - 50 с.; Usmanxodjaev T.S., Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov "Milliyvaharakatli o'yinlar" Darslik. - Toshkent, 2015, 300 b.; Usmonxodjaev T.C. va boshq. 500 mashq va harakatli o'yinlar 2- qism. Toshkent.1999. B. 4-15.; Kerimov F., Jumagulova A. Dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarlik asoslari //Socio research. – 2025. – T. 1. – №. 2025.-B.82-85.

³Филимонов В.И. Физическая подготовка начинающего боксера. - М., 2013.С-159.; Филин В.П. Воспитательная работа с юными спортсменами //Система подготовки спортивного резерва. - М.: ВНИИФК, 2023, С. 57-90.; Система подготовки спортивного резерва/ Под общ. Ред. В.Г. Никитушкина.-М., 2024.-В.132-135.; Ширяев А.Г. Педагогические основы организации и содержания многолетней подготовки спортсмена (на примере бокса): Автореф. дис. ...док. пед. наук. / А.Г.Ширяев. – Санкт-Петербург., 2022.С- 46-52 с.; Волков Л.В. Спортивная подготовка детей и подростков. - К.: Вежа, 2018, -С. 190.; Котешев В.Е. Методология управления адаптацией спортсменов к специальным двигательным действиям в боксе. Автореф. дисс.... доктор. пед. наук. / В.Е.Котешев-Краснодар, 2018, 45 с.; ТышлерД.А., Мовшович А.Д., Тышлер Г.Д. Многолетняя тренировка юных фехтовальщиков: Учебное пособие. - М.. 2002. С-254-259.

⁴ Канатов. А.В. Формирование спортивной мотивации у юных баскетболисток на этапе углубленной специализации: Автореф. дисс. ... канд. пед наук: – Тюмень, 2005,-С. 26-29. Roberts, J., & Sevieri, D. (2018). The Well-Wrought Broken Championship Belt: Thing Theory in Professional Wrestling Criticism. The popular culture studies journal, 204. Ivanov N. A., Gonta S. N. Comparative Analysis of Belt Wrestling Koresh and Korean National Wrestling Ssireum //European Journal of Physical Education & Sport. – T. 12. – №. 1. 2024.. -P.345-350. Demiral S., Demir A. Determining expectations and beginning factors which affect 13-14 year-old children who perform belt wrestling to start doing sports: field work //European Journal of Physical Education and Sport Science. – 2017. -P.215-219.

Tadqiqotning maqsadi belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining ilmiy-metodik jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

belbog‘li kurashchilarni mashg‘ulot jarayonlariga texnik harakatlariga o‘rgatishda ideomotor mashqlardan foydalanish tartibini ishlab chiqish;

belbog‘li kurashchilarni asosiy usullar - kiftlash, ilish va to‘sib tashlash harakatlarining har bir fazasini aniq amplituda bo‘yicha o‘rgatish uchun TAKTIK sport texnologiyasini ishlab chiqish;

belbog‘li kurashchilarning bellashuv vaqtida taktik tayyorgarligining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun tabaqalashtirilgan kombinatsiyalar modellarini ishlab chiqish;

belbog‘li kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida muvozanatni saqlash va aylanishdagi texnik harakatlarni takomillashtirish maqsadida “Barani” kreslosi trenajyoridan foydalanishning samaradorligini tajribada asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi Chirchiq Davlat pedagogika universiteti, Jismoniy madaniyat talabalari belbo‘li kurash bilan shug‘ullanuvchi kurashchilar o‘quv mashg‘ulotlari jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini belbo‘li kurashchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi, texnik va taktik tayyorgarlik moduli va nazorat testlaridan foydalanish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarining tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatish, pedagogik testlash, instrumental uslub, pedagogik tajriba va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

belbog‘li kurashchilarni bellashuv jarayonidagi texnik harakatlariga o‘rgatish uchun murakkab texnik elementlarning bajarilishida uchraydigan xato va nuqsonlarni oldini olishga qaratilgan ideomotor mashqlardan foydalanish tartibini mashg‘ulotlarga kiritish hisobiga mantiqiy tafakkurda taxlil qilish imkoniyati takomillashtirilgan;

belbog‘li kurashchilarni asosiy usullarga o‘rgatishda har bir fazalarini aniq amplituda bo‘yicha bajarish orqali bazaviy xatti-harakatlarni kiftlash, ilish va to‘sib tashlash harakatlarini bajarishga qaratilgan “TAKTIK” sport texnologiyasini ishlab chiqish hisobiga dastlabki texnik elementlariga o‘rgatish imkoniyati kengaytirilgan;

belbog‘li kurashchilarning bellashuv vaqtida taktik tayyorgarlikning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan (ozg‘in, semiz, baland bo‘yli, past bo‘yli sportchilar)ga mos kombinatsiyalar dasturini takomillashtirishga qaratilgan majmuaviy tayyorgarlik modulini ishlab chiqish hisobiga hujum qilish vaziyatini nazorat qilish imkoniyati kengaytirilgan;

belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik, muvozanat saqlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun vertikal, sagital va frontal yo‘nalishlarni “Barani kreslosi” trenajyoridan foydalanish hisobiga texnik-taktik tayyorgarligi va muvozanat saqlash qobiliyatlarining imkoniyatlari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

belbog‘li kurashchilarni bellashuv jarayonidagi murakkab texnik elementlarning bajarilishida uchraydigan xato va nuqsonlarni oldini olishga qaratilgan ideomotor mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

belbog‘li kurashchilarni asosiy usullarga o‘rgatish uchun kiftlash, ilish va to‘shib tashlash harakatlari trayektoriyasining har bir fazalarini aniq amplituda bo‘yicha bajarish orqali bazaviy xatti-harakatlarni shakllantirish hisobiga kurashchilarni dastlabki texnik elementlariga o‘rgatish samaradorligi oshirilgan;

tayyorgarlikning dastlabki bosqichlarida bellashuv vaqtida taktik tayyorgarlikning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun tabaqalashtirilgan harakatlar moduli ishlab chiqilgan;

belbo‘li kurashchilarning mashg‘ulotlar jarayonida “Barani kreslosi” dan foydalanish bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik, muvozanat saqlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdiqlanib, qo‘llanilgan tadqiqot uslublari kompleksi tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos keladi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to‘g‘ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi va talqin etilganligi, olingan natijalarning to‘g‘riligi va ishonchliligi tadqiqot va pedagogik uslublarning to‘g‘ri qo‘llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari yordamida ishlab chiqilganligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, o‘tkazilgan pedagogik tajribalar hamda qo‘lga kiritilgan natijalarga asoslanib yosh kurashchilar o‘quv-mashg‘ulot jarayonining zamonaviy vositava uslublari ishlab chiqilgan va ulardan foydalanishning ilmiy jihatlari ochib berilgan, ilmiy izlanishlar jarayonida belbo‘li kurashchilarning bazaviy harakatlarini muvozanatga qaratilgan mashqlari yordamida rivojlantirish, shuningdek, ularning texnik harakatlari samaradorligini oshirishning o‘zaro uzviy ravishda bog‘liqligi amaliy jihatdan olingan ma’lumotlar, belbo‘li kurash nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarni boyitish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, belbog‘li kurashchilarning bazaviy harakatlari samaradorligini oshirish uchun zamonaviy qurilmadan, shuningdek, kurashchilarning umumiy texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida foydalanilgan sport qurilmasidan keng foydalanish ushbu sport uskunalarini orqali sportchilarni tayyorlashning o‘quv mashq tayyorgarlik bosqichidan boshlab bazaviy hatti-harakatlarini to‘g‘ri shakllantirishga, yuklamalarni oqilona taqsimlashga va shu tufayli tayyorgarlikning keyingi bosqichlarida o‘quv mashg‘ulotlari va musobaqa faoliyatida natijadorlikning o‘shishiga va tabaqalashtirilgan baholash shkalasini sinash metodikasi, texnik va taktik tayyorgarlik parametrlarini baholash dasturini o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq qilishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining ilmiy metodik jihatlari bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

belbog‘li kurashchilarni bellashuv jarayonidagi texnik harakatlariga o‘rgatish uchun murakkab texnik elementlarning bajarilishida uchraydigan xato va nuqsonlarni oldini olishga qaratilgan ideamotor mashqlardan foydalanish tartibini mashg‘ulotlarga kiritish hisobiga mantiqiy tafakkurda tahlil qilish imkoniyati Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 14 dekabrda 03-16/12869-sonli malumotnomasi). Natijada, kurashchilarda texnik-taktik tayyorgarlikning 5 ta ko‘rsatkichi bo‘yicha nisbiy o‘shishning o‘rtacha arifmetik qiymati 11 % ga yaxshilangan;

belbog‘li kurashchilarni asosiy usullarga o‘rgatishda har bir fazalarini aniq amplituda bo‘yicha bajarish orqali bazaviy xatti-harakatlarni kiftlash, ilish va to‘sh tashlash harakatlarini bajarishga qaratilgan “TAKTIK” sport texnologiyasini ishlab chiqish hisobiga dastlabki texnik elementlariga o‘rgatish imkoniyati Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 14 dekabrda 03-16/12869-sonli malumotnomasi). Natijada, talabalarda shug‘ullanuvchi Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik harakatlari 19.47 % ga takomillashtirilgan;

belbog‘li kurashchilarning bellashuv vaqtida taktik tayyorgarlikning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan (ozg‘in, semiz, baland bo‘yli, past bo‘yli sportchilar)ga mos kombinatsiyalar dasturini takomillashtirishga qaratilgan majmuaviy tayyorgarlik modulini ishlab chiqish hisobiga hujum qilish vaziyatini nazorat qilish bo‘yicha takliflar Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 14 dekabrda 03-16/12869-sonli malumotnomasi). Natijada, belbog‘li kurashchilarning taktik harakatlari 18.9% ga yaxshilangan;

belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik, muvozanat saqlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun vertikal, sagital va frontal yo‘nalishlarni “Barani kreslosi” trenajyoridan foydalanish hisobiga texnik-taktik tayyorgarligi va muvozanat saqlash qobiliyatlarining imkoniyati chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining belbog‘li kurashchilariga tatbiq etildi. (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 14 dekabrda 03-16/12869-sonli malumotnomasi). Natijada, talabalarda muvozanat saqlash qobiliyatlarini 19.47 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ulardan 1 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bobdan iborat bo‘lib, 117 sahifa matn, 10 ta rasm, 14 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va uning zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob‘yekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Диссертациянинг **“Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, yosh Belbog‘li kurashchilarni texnik va taktik harakatlarga o‘rgatishning umumiy tavsifi, sport kurashlari texnikasini o‘rgatishda mashg‘ulot jarayonining tuzilishi va mohiyati, Belbog‘li kurash sport turlarida musobaqa faoliyatini taxlil qilish masalalari hozirgi kunda mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali yoritilgan. Bir qator olimlar J.M.Ishtayev, Sh.Mirzaqulov, Sh.S.Mirzanov, Z.S.Artiqov, Z.S.Artiqov, B.Ergashev, Sh.Mirzanov, I.B.Isayev, T.Sh.To‘ychiyev, A.U.Xamidjonov, M.M.Qirg‘izboyev o‘zlarini ilmiy tadqiqot ishlarida Belbog‘li kurash bo‘yicha turli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Lekin ularni texnik taktik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish zarur ekanligi tasdiqlandi.

Respublikamizning yetuk olimlaridan F.A.Kerimov, A.N.Abdiyev, Z.A.Bakiyev, I.B.Aliyev, K.B.Muxammadiyev, O.J.Dadabayev hamda N.A.Tastanovlar turli kurash sport turlarida kurashchilarni tayyorlashda texnik-taktik, jismoniy, tezkor-kuch, innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisobiga kerakli natijalarga erishganligini ko‘rish mumkin.

Xorijiy olimlardan L.P.Matveyev, V.N.Platonov, M.A.Godik, A.A.Karelin hamda V.I.Lyaxlar ilmiy tadqiqot ishlarida ma‘lumotlar berilgan. Ammo ularning dissertatsiya va ilmiy adabiyotlarida Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha yetarlicha ma‘lumotlar keltirilmagan.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yetakchi olimlar Belbog‘li kurashning musobaqaoldi tayyorgarligi, jismoniy tayyorgarlik, mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish, turli dasturlar ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Respublikamiz olimlari Belbog‘li kurash bo‘yicha tezkor kuch qobiliyatini rivojlantirish, Belbog‘li kurashchilarning statodinamik harakatlarini rivojlantirish masalalari, Belbog‘li kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarini shakllantirish, teskari zahvat bilan texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish muammolari, vazn

toifalarini inobatga oli saralash imkoniyatlari kabi muammolar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganligini ko'rish mumkin.

Umuman olganda belbo'li kurashchilarning texnik-taktik tayyyorgarligini oshirishning metodik jihatlari bo'yicha yetarli darajadi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi aniqlandi. Belbog'li kurash sport turi Osiyo, Evropa hamda Afrika qitalarida keskin rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri hisoblanishiga qaramay osiyo va olimpiya o'yinlari qatoriga kirib ulgurmaganligi bilan ajralib turadi.

Belbog'li kurashchining texnik mahorati bu - kurashchining texnik harakatlari zahirasi qanchalik boy bo'lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo'llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo'lishini takidlaydi. Belbog'li kurash texnikasi kurashchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko'p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o'nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas [A.U Gofurov, 2016].

Belbog'li kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarishdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo'lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish ko'p jihatdan texnik takomillshtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo'ladi. Harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan hamma xatolari beshta guruhga bo'linadi: harakatlanish yetishmasligi, o'qitishdagi kamchiliklar, sharoitlarning g'ayritabiyligi, kutilmagan xatolar yuzaga kelar ekan.

Belbog'li kurash taktikasi – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Belbog'li kurashchilar taktikaga oid zarur bilimlarni egallashda bellashuvlarni to'g'ri olib borishda ma'lum malaka hamda bilimlarni shakllantirishda taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar tushunilar ekan [Sh.S Mirzanov., T.R.Ishmuxamedov 2014].

Turli xildagi murakkab harakatlar zamonaviy kurashda mavjud ba'zi adabiyot manbalarida murakkab texnik-taktik harakatlar deb ataladi. Belbog'li kurashda texnika va taktika dialektik birlikni tashkil etadi. Ayrim texnik harakatlar (usullar) taktik usullar bo'lishi ham mumkin. Bu – hujum, qarshi hujum va himoya harakatlaridir. O'z navbatida ba'zi taktik harakatlar ma'lum bir texnik harakatlar hisoblanadi siltab ko'tarish, dast ko'tarish [Sh.A Mirzaqulov 2014].

Dissertatsiyani **“Tadqiqotning usullari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa-so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, tadqiqotni amalga oshirish bo'yicha pedagogik tajribalar, tadqiqotning tashkil qilinishi, olingan materiallarni qayta ishlash bo'yicha matematik statistika usullaridan foydalanilganlik hamda **“TAKTIK”** sport uskunalarining tuzilishi va funksiyasini o'rganib chiqish va belbog'i kurashchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish uchun maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish borasidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Tadqiqot 2020-2023 yillarda uchta bosqichda tashkil etildi.

Birinchi bosqichda (2020 yil) ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida kurashchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy xususiyatlari o'rganildi, tadqiqotning yo'nalishi belgilandi. Tadqiqotning mavzusi shakllantirildi. Amalga oshiriladigan tajribalarga mos ravishda usullar tanlandi, ishchi faraz shakllantirildi. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilandi, dastlabki materiallar to'plandi.

Ikkinchi bosqichda (2021-2022 o'quv yili) biz tomonimizdan ishlab chiqilgan yosh kurashchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasini tajriba-sinovlarda qo'llash orqali kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi va umumiy jismoniy tayyorgarligi darajalari aniqlandi.


Tajriba o'tkazish uchun maxsus ishlab chiqilgan "TAKTIK" sport uskunalari ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasining qo'llanilish samaradorligini aniqlash bo'yicha Belbog'li kurashchilar bilan o'tkazilgan pedagogik tajribalar keng yoritilgan.

Uchinchi bosqichda (2022-2023 o'quv yili) tajriba va nazorat guruhlariga o'quv-mashq bosqichida shug'ullanuvchi Belbog'li kurashchilar jalb qilindi. kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish samaradorligiga yo'naltirilgan maxsus ishlab chiqilgan "TAKTIK" sport uskunasi, kurash gilamida bajariladigan mashqlar ta'siri pedagogik tajribalarda aniqlandi.

Texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan o'quv-mashq bosqichi mashg'ulotlari yuklamalari optimallashtirildi. Bu maqsadda ishlab chiqilgan texnologiyaning samaradorligi tajriba-sinovlarda o'z aksini topdi.


Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi Chirchiq davlat pedagogika universitetida tahsil olayotgan Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda maxsus mashqlarning qo'llanilishi sinovdan o'tkazilgan tadqiqotlarning samaradorligi asoslandi. Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar matematik-statistika usullari yordamida tahlil qilindi, dissertatsiya ishi shakllantirildi va rasmiylashtirildi.

Dissertatsiyaning **"Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari"** deb nomlangan uchinchi bobida, trenerlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari, Belbog'li kurashchilarning texnik usullarini bajarishi, texnik-taktik mahoratini oshirishning metodologik xususiyatlari, Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Bizning so'rovnomamizda qatnashgan kurash turlari bo'yicha murabbiylar, sportchilar va mutaxassislar Belbog'li kurashchilarning tizzadan ko'tarib tashlash usulini bajarishdagi texnikasini nazorat qilish masalasida turli xil fikrlarni bildirdilar. Anketa so'rovnomasida Belbog'li kurash bo'yicha 60 nafar trener va mutaxassislar ishtirok etdi. So'rovnoma natijalari 1-2-3- rasmlarda aks ettirilgan. Umuman olganda Belbog'li kurash mutaxassislarining bergan javoblarini tahliliga ko'ra so'rovnomada qatnashganlarning 60 % ni tashkil etadigan ko'plab Belbog'li kurash trenerlari sportchilar uchun texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha mashg'ulotlar dasturida qancha foyzni ajratish bo'yicha mashg'ulotlar dasturiga o'zgartirishlar kiritishni belgilaganligini ko'rish mumkin.



1-rasm. Belbog'li kurashda texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarlik nisbatlari (so'rovnoma natijalariga ko'ra)


1-rasmdan ko'rinib turibdiki Belbog'li kurashda ayni damdagi texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarlik nisbatlari trener va sportchilardan olingan natijalari ifodalangan. Natijalarga diqqat bilan nazar salsak Jismoniy tayyorgarlikka eng yuqorri darajada e'tibor qaratilar ekan. Eng kichik ko'rsatkichni psixologik tayyorgarlikka qaratilishi ma'lum bo'ldi. Texnik va taktik tayyorgarlikka sal kam umumiy tayyorgarlikning uchdan bir qismiga to'g'ri kelayotganligini ko'rish mumkin. so'rovnomadan olingan keyinga natijalar quyidagi 2- rasmda ifodalangan.



2-rasm. Belbog'li kurashda trener va sportchilarda o'tkazilgan muvozanat va taktik kombinatsiyalar bo'yicha so'rovnoma natijalari


Yuqoridagi 2- rasmdan ko‘rinib turibdiki, 60 nafar respondentlarning mashg‘ulotlarda muvozanat saqlash mashqlari qo‘llaniladimi degan savolga 47% respondentlar ha deb javob berishdi, 23 % yo‘q deb javob berishgan bo‘lishsa 30 % bilmayman deb javob berganligini so‘rovnoma natijalaridan ko‘rish mumkin.

Belbog‘li kurashda taktik kombinatsiyalardan foydalanasizmi degan savolga 23% respondentlar ha deb, 35 % respondentlar yo‘q deb, 42% respondentlar bilmayman deb javob berganligini ko‘rish mumkin. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘ng va chap oyoqlarda muvozanat saqlash mashqlari qo‘llaniladimi degan savolga so‘rovnomada qatnashganlarning 37 % ha, 24 % yo‘q, 39% bilmayman deb javob berganligini ko‘rish mumkin. Texnik usullar bo‘yicha olingan natijalar quyidagi 3-4 rasmlarda aks ettirilgan.



3-rasm. Belbog‘li kurashda qaysi texnik usullardan ko‘proq foydalanishi.

Yuqoridagi rasmda respondentlarning javoblari quyidagicha bo‘ldi chap yonboshdan oshirib tashlash usulini 48% respondentlar foydalana olishini ko‘rish mumkin, O‘ng yonboshdan oshirib tashlash usulini 42% respondentlar musobaqalarda qo‘llay olishini takidlashgan, O‘ng oyoq bilan ko‘tarib tashlash usulini 7%, Chap oyoq bilan ko‘tarib tashlash usulini 3% musobaqalarda sportchilar foydalana olishlari ma‘lum bo‘ldi. Texnik usullarni bajarishda zarur bo‘ladigan jismoniy sifatlar 4-rasmda aks etgan.




4-rasm. Texnik usulni bajarish uchun zarur bo‘lgan eng muhim jismoniy sifatlar

4-rasmdan ko‘rinib turibdiki Belbog‘li kurashda eng muhim bo‘lgan jismoniy sifatlarni belgilang degan savolga respondentlar tezlik, egiluvchanlik va chaqqonlikni belgilab berganligini ko‘rrish mumkin. Umuman olganda texnik elementlarni bajarishda 5 ta jismoniy sifatlarning barchasi muhim ahamiyat kasb etishini tushunamiz. Lekin ularning ichidan nisbatan ko‘proq etiborr qaratiladiganlari tezlik, egiluvchanlik va chaqqonlik ekanligini respondentlar rasdiqlab berishdi.

Shuni aytish joizki, Belbog‘li kurashda qo‘llaniladigan vosita va usullar, texnik elementlarni takomillashtirish yo‘llari ilmiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Belbog‘li kurashni rivojlantirish bo‘yicha maxsus mashqlarni bajarish to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar juda kam. Yuqoridagi fikr va mulohazalarni inobatga olib, Belbog‘li kurashchilarning texnik harakatlarga o‘rgatishda onglilik va faollilik tamoyilidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida dastur ishlab chiqildi, ushbu dastur quyidagi rasmda ifodalangan.

1. Kiftlash; o‘ng oyoq va o‘ng qo‘l tezkor-kuch bilan kiftlab o‘ng qo‘lini qo‘l tomonga yetkazish
2. Yarim o‘tirgan holda chap oyoqni biroz oldinga qo‘yib tazni chap tomondan kirishga tayyorgarlik.
3. Yarim o‘tirgan holda chap oyoqni biroz oldinga qo‘yib tazni chap tomondan kirish.
4. Gavdani chap tomonga burib o‘ng qo‘lni o‘ng tomon pastiga tomon shiddat bilan tortish.

5. Butun gavda holatini chap tomonga burishda qo'llarni gavdamizga maksimal yaqinlashtirish bilan birga oyoqlarni tik holatga keltirib yiqitish.



5-rasm. Belbog'li kurash texnikasini o'rgatishda onglilik va faollilik tamoyilining mazmuni

Bitta usulni boshidan to oxirigacha 5 ta harakat bilan usul yakunlangan bo'lsa, mashg'lotlar jarayonida trener biron bir usulning tashqi konturini o'rgatar ekan. Har bir sportchi ongida harakatlar tizimini tuzilishini yaratib ana shu yaratilgan harakatlar bo'yicha musobaqalarda amalga oshirar ekan. Harakatlarni ongli va faol tarzda o'rganishi uchun sportchilarda dastlabki tadqiqot natijalari olindi. 1- jadvalga qarang.

1-jadval

Tadqiqot va nazorat guruhi belbog'li kurashchilarning eksperiment boshidagi usullarni bajarishda ideomotor mashqlanishning ko'rsatkichlari (n=30)

T/r	Usullar nomi	Harakatlar soni	Tadqiqot guruhi	Nazorat guruhi	t	P
1	Chap yonboshdan oshrib tashlash usuli	5	3,4±0,7	3,5±0,6	0,59	>0,05
2	O'ng yonboshdan oshrib tashlash usuli	5	2,8±1,6	3,2±1,4	1,03	>0,05
3	O'ng tizzaga oyoq bilan ko'tarib tashlash usul	6	4,1±1,8	4,3±1,7	0,44	>0,05

1-jadvalning davomi

4	Chap tizzaga oyoq bilan ko'tarib tashlash usul	6	3,3±1,1	5,1±1,3	5,79	<0,001
5	Raqibni ko'tarib, o'ng oyoq bilan to'sib tashlash usuli	5	3,6±1,9	4,2±1,8	1,26	>0,05
6	Raqibni ko'tarib, chap oyoq bilan to'sib tashlash usuli	5	2,8±0,9	3,1±0,7	1,44	>0,05
7	Raqibni o'ngga ko'tarib, chapga qaytarib tashlash (qaytarma) usul	7	4,5±0,8	4,6±0,9	0,45	>0,05
8	Raqibni chapga ko'tarib, o'ngga qaytarib tashlash (qaytarma) usul	7	2,7±2,6	3,3±2,7	3,29	<0,001

1-jadvaldan ko'rinib turtibdiki Belbog'li kurashchilarning usullarni bajarishda onlilik va faollilik tamoyilini amaliy mashg'ulotlar jarayonidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari ifodalangan.

Tadqiqot natijalariga diqqat bilan nazar solsak 8 ta usullarning bajarilish ketma ketligi bo'yicha harakatlar soni 5 tadan 7 tagacha ekanligini ko'rish mumkin. Tadqiqot boshida sinaluvchilardan olingan natijalar quyidagicha bo'ldi. Birinchi usul bo'yicha to'g'ri bajarilgan harakatlar soni va ketma-ketligi tajriba guruhida 3,4 nazorat guruhida 3,5 ta to'g'ri harakatlar bajarilganligini ko'rish mumkin. Eng yaxshi ko'rsatkichni 4-va 8- usullarda nazorat guruhi tajriba guruhiga nisbatan ishonchli darajada bajarganligini ko'rish mumkin. 6 ta harakatli "Chap tizzaga oyoq bilan ko'tarib tashlash" usulida tajriba guruhi 3,3 ta nazorat guruhida 5,1 ta to'g'ri aniq harakatlarni ishonchli tarzda $P < 0,001$ amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga 7 ta harakatli "Raqibni chapga ko'tarib, o'ngga qaytarib tashlash (qaytarma)" usulda ham tajriba guruhiga nisbatan 2,7 ta nazorat guruhi 3,3 ta to'g'ri ishonchli harakatlarni amalga oshirib student mezon bo'yicha $t = 3,29$ ishonchlilik darajasi $P < 0,001$ teng ekanligini tadqiqotlardan ko'rish mumkin.

Umuman olganda tadqiqot boshidagi nazorat guruhining ko'rsatkichlari tajriba guruhiga nisbatan yetarli darajada yaxshiroq ekanligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot yakunida olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda ifodalangan.

Tadqiqot va nazorat guruhi belbog‘li kurashchilarning eksperiment oxiridagi usullarni bajarishda ideomotor mashqlanishning ko‘rsatkichlari (n=30)

T/R	Usullar nomi	Harakatlar soni	Tadqiqot guruhi	Nazorat guruhi	t	P
1	Chap yonboshdan oshrib tashlash usuli	5	4,9±0,88	3,8±0,85	4,92	<0,001
2	O‘ng yonboshdan oshrib tashlash usuli	5	4,8±0,66	4,2±1,20	2,40	<0,01
3	O‘ng tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash usul	6	5,7±0,75	4,9±0,96	3,60	<0,001
4	Chap tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash usul	6	5,75±0,48	5,3±0,83	2,57	<0,01
5	Raqibni ko‘tarib, o‘ng oyoq bilan to‘sib tashlash usuli	5	4,96±0,63	4,53±0,89	2,16	<0,05
6	Raqibni ko‘tarib, chap oyoq bilan to‘sib tashlash usuli	5	5,8±0,81	5,1±0,86	3,25	<0,01
7	Raqibni o‘ngga ko‘tarib, chapga qaytarib tashlash (qaytarma) usul	7	6,5±0,67	5,7±0,69	4,56	<0,001
8	Raqibni chapga ko‘tarib, o‘ngga qaytarib tashlash (qaytarma) usul	7	6,7±1,22	5,3±1,37	4,18	<0,001

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki tadqiqot va nazorat guruhlaridan olingan ko‘rsatkichlar quyidagicha “Raqibni ko‘tarib, o‘ng oyoq bilan to‘sib tashlash” usuli ishonchlilik darajasi $P < 0.05$. “o‘ng yonboshdan oshrib tashlash”, “chap tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash”, “raqibni ko‘tarib, chap oyoq bilan to‘sib tashlash” usullarida ishonchlilik darajasi o‘rtacha $P < 0.01$ ekanligini ko‘rish mumkin. Qolgan to‘rtta testlarda ishonchlilik darajasi maksimal darajada yuqori $P < 0.001$ darajada o‘sganligini ko‘rish mumkin. Umuman olganda onglilik va faollilik tamoyilini mashgulot jarayoniga tasiri sakkizta usullarning barchasida tadqiqot guruhining ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ishonchli o‘sganligini ko‘rish mumkin.

**Belbog‘li kurashchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha
tabaqalashtirilgan majmuaviy tayyorgarlik modulini**

T/R	Usullar nomi	Baland bo‘ylilar uchun	Normal shaxslar	Ortiqcha vaznga ega (Semiz) bo‘lganlar
1	Chap yonboshdan oshrib tashlash usuli	+	++	+++
2	O‘ng yonboshdan oshrib tashlash usuli	+	++	+++
3	O‘ng tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash usul	+++	++	+
4	Chap tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash usul	+++	++	+
5	Raqibni ko‘tarib, o‘ng oyoq bilan to‘sib tashlash usuli	+++	+++	+++
6	Raqibni ko‘tarib, chap oyoq bilan to‘sib tashlash usuli	+++	+++	+++
7	Raqibni o‘ngga ko‘tarib, chapga qaytarib tashlash (qaytarma) usul	++	++	++
8	Raqibni o‘ngga ko‘tarib, chapga qaytarib tashlash (qaytarma) usul	++	++	++

Izoh: +++- kuchli darajada, ++- o‘rta darajali, +-pastroq darajali

Ushbu 3-jadvaldagi modul uchta asosiy guruhni qamrab oladi:

1. Baland bo‘ylilar – uzun qo‘l va oyoq nisbati tufayli (tayanch nuqtasini uzoqroqdan qo‘llash) ustunligi mavjud. Ular ko‘proq “ko‘tarib tashlash” va “tosdan o‘tkazib uloqtirish” usullarida qulaylikka ega.

2. Normal gavdali sportchilar – muvozanatli kuch, tezlik va chaqqonlikka ega bo‘lib, deyarli barcha asosiy usullardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Ular ko‘proq kombinatsion texnikalarni qo‘llaydi.

3. Ortiqcha vaznga ega (semizroq) sportchilar – odatda kuch ko‘rsatkichlari baland bo‘lsa-da, tezkorlik va manevrchanlik biroz sustroq bo‘ladi. Shu bois ularga

ko'proq yonbosh orqali oshirib tashlash va tosdan ko'tarib uloqtirish kabi katta kuch talab qiladigan, lekin tezkorlikka kamroq bog'liq usullarni qo'llash qulayroq bo'ladi.

Baland bo'yli: uzun bo'y va oyoq ularga raqibni ko'tarishda qulaylik beradi, ammo muvozanatni boshqarishda o'rta samaradorlik (++)). Normal shaxslar: texnik imkoniyatlari muvozanatli, samaradorlik o'rtacha (++)). Semiz sportchilar: tezlik pastligi sababli qaytarma usullarni mukammal bajarish qiyinroq (++)).

Belbog'li kurashchilarning antropometrik ko'rsatkichlari asosida tabaqalashtirilgan tayyorgarlik moduli ularning individual imkoniyatlarini to'liq hisobga olish imkonini beradi. Bu yondashuv mashg'ulot samaradorligini oshiradi, jarohatlarning oldini oladi hamda sportchilarni musobaqalarda maksimal natijaga erishishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining samaradorligini pedagogik tajribada asoslash”** deb nomlangan to'rtinchi bobda belbog'li kurashsport turidagi texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishda quyidagilar aniqlandi.

Xatti-harakatlarni boshqarishning aniqligi, izchilligi va ishonchliligi bir qator psixik jarayonlar bilan amalga oshirilish darajasi va o'ziga xosligiga bog'liq bo'ladi. Bularga psixomotor reaksiyalar, ko'rish, eshitish, taktil (teri orqali) va ayniqsa mushak-harakat sezgilari, idroklar, tasavvurlar, tafakkur, diqqat va hokazolar kiradi.

Mazkur psixik jarayonlar xatti – harakatlarni boshqarishning sifati va ishonchliligini takomillashtirish mumkin bo'lgan sportchilarning texnik tayyorgarligini o'stirish imkoniyatini yaratadi.

Belbog'li kurash taktikasi – bu bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanishdir. Bunda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

Hujum uchun tayyorgarlik harakatlari – bu hujum harakatini bajarish uchun zarur bo'lgan raqibning kutilayotgan va himoyalani harakatini keltirib chiqarish maqsadida bajariladigan hujum harakatlaridir. Taktik tayyorgarlik usullari – Belbog'li kurashchi harakatlari bo'lib, ular yordamida u hujum yoki qarshi hujum uchun qulay sharoitlarni yaratadi. Kuzatish – Belbog'li kurashchining raqib to'g'risida ma'lumot olishga qaratilgan taktik harakatlaridir. Niyatni yashirish – Belbog'li kurashchining taktik harakati bo'lib, uning yordamida u raqibdan o'zining asl niyatlarini yashiradi. Xafv solish – kurashchining raqibni himoyalanihga o'tishga majbur qiluvchi taktik harakatidir. Aldamchi harakat (aldash) – hujum qiluvchi tomonidan oxiriga yetka-zilmaydigan va raqibni himoyalanihga majbur qiladigan usullar, qarshi usullar, ushlab olishlar, siltashlar, turtishlar va boshqa harakatlar.

Tajriba va nazorat guruhlarining eksperiment boshidagi va ohirida 10 soniyada “O‘ng tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash” usulining natijalari

T/r	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
	F.I.SH	Tadqiqot boshi	Tadqiqot oxiri (n=15)	F.I.SH	Tadqiqot boshi (n=15)	Tadqiqot ohiri
1	Ab-L	1	5	Ax-Z	2	3
2	Ar-X	2	6	Ak-A	2	3
3	Be-M	2	6	Bo-B	3	4
4	De-R	3	7	Be-D	2	3
5	Yo-T	1	5	Va-K	2	2
6	Ja-O	3	8	Du-N	3	4
7	Zu-D	1	5	Da-J	4	4
8	Ma-M	2	3	Mu-I	1	2
9	Na-R	2	5	Mu-X	2	3
10	Xa-F	2	4	Ya-R	3	3
11	Bo-Z	2	5	To-R	2	2
12	Ab-B	3	6	So-G	4	3
13	Xa-O	4	7	Pa-K	1	3
14	Ish-D	1	5	Ru-X	1	2
15	Ke-S	2	6	Fa-G'	2	3
	\bar{X}	1,9	5,4		2,4	3,1
	σ	0,73	1,42		0,84	0,73
	t	6,87			1,97	
	P	<0,001			<0,05	

Muvozanatdan chiqarish – kurashchining taktik harakati bo‘lib, u raqibni nomustahkam holatni egallashga majbur qilish bilan birga kurashchiga hujumni bajarish uchun qulay vaziyatni yaratadi. Usullar kombinatsiyalari – usullar uyg‘unligi bo‘lib, bunda boshlang‘ich usullar keyingilarini bajarish uchun qulay dinamik vaziyat yaratadi.


Yuqoridagilarni inobatga olib Belbog‘li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining takomillashtirishda onglilik va faollilik tamoyilining samaradorligini eksperimental asoslashni belgilab oldik.

Tajriba natijalari Chirchiq davlat pedagogika universitetining 1-2- bosqich talabalarining o‘quv mashg‘ulot jarayonida olindi. Belbog‘li kurashchilarning texnik harakatlarga o‘rgatishda har bir texnik elementlarni avval yaxlitligicha keyin qismlarga bo‘lib o‘rgatish tamoyili asosida olib borildi. O‘ng tizzaga oyoq bilan ko‘tarib tashlash usulini texnikasini o‘rgatishda avval o‘sha usulga yaqin harakatlarni

bajarish so'ngra "O'ng tizzaga oyoq bilan ko'tarib tashlash" texnikasini bajarish quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki tajriba va nazorat guruhidagi shug'ullanuvchi Belbog'li kurashchilarning O'ng tizzaga oyoq bilan ko'tarib tashlash natijalari ifodalangan.


Olingan natijalarga e'tibor bilan qaraydigan bo'lsak tadqiqot boshida nazorat guruhidan olingan ko'rsatkichlar $\bar{X}=2,4$ marta sigma ko'rsatkichi 0,84 variatsiya ko'rsatkichi esa 35,1 foyz ekanligi aniqlandi. Tajriba guruhida ushbu ko'rsatkichlar $\bar{X}=1,9$ sigma ko'rsatkichi 0,73 variyatsiyasi 38,8 foyz ekanligi tajribalarda tasdiqlandi. Individual ko'rsatkicharga nazar soladigan bo'lsak nazorat guruhida eng eng ko'pi Da-J talluqli bo'lib 4 martagacha bajargaigini ko'rish mumkin. Minimal ko'rsatkichni Mu-Iga tegishli 1 marotabagacha bajarishga muvaffaq bo'lishdi. Tajriba guruhida esa maksimal ko'rsatkichni ikki nafar respondent De-R va Ja-O qayd etgan uning ko'rsatkichi 3 marotaba tashlashga erishgan. Minimal ko'rsatkichni esa Zu-D, Yo-T, va Ab-L ga tegishli bo'lib u bor yo'g'i 1 marotaba tashlashga erishgan.



6-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining tadqiqot boshidagi va ohiridagi ko'rsatkichlarning grafik tasviri

Umuman olganda tajriba boshidagi ko'rsatkichlar orasida ishonchlilik darajasi deyarli sezilmadi. 1 oylik pedagogik eksperimentdan so'ng tajriba yakunidagi ko'rsatkichlarga qaraydigan bo'lsak nazorat guruhida ham tajriba guruhida ham ijobiy o'sishlar kuzatildi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichlar umumiy o'rtacha 3,1 marotabaga yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Sigma ko'rsatkichi esa 0,73

